

## PSIXOLOGIK XIZMATNING RIVOJLANISH TARIXI

**Achilov Obid Muzrobovich**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
“Maktadgacha ta’lim” kafedrasining o’qituvchisi*

**Ismoilova Muslima Nabiyevna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi .*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada psixologik xizmat fanining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi keng yoritilgan. Shu bilan birga mamlakatlar, chet el davlatlari kesimida ko’rib chiqilgan psixologning vazifalari jamiyat hayotida tutgan o’rni aytib o’tilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Gaydens xizmati, Bine-Simon testi, psixoproflaktish ishlar, psixodiagnostik ishlar, psixologik konsultatsiya, psixologik xizmatning mazmuni, psixologik xizmat haqida.*

Nizom: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining psixologiya sahosisda kadrlar ni tayyorlash tizimini yanada takomilashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish tog’risidagi 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli qarori O’zbekiston Respublikasi bosh vaziri A.Aripov tamonidan imzolandi. Qarorga kôra yoshlarga sifatli psixologik xizmat ko’rsatish, psixologik xizmat faoliyatini boshqarishni muvofiqlantirish, ta’lim muassasalari bilan profilaktika inspektorlari va jamoat vakillari o’rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga ko’rsatish, malakali mutaxassislardan iborat bo’lgan ishchi guruh yaratishdan iborat.

Psixologik xizmat birinchi bo’lib AQSH da 1800-yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQSH ning birinchi amaliyotchi psixologlari o’z-o’zini tarbiyalash muammosini o’rgangan, eksperimental psixologlar edilar.Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsientini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik “Gaydens” xizmatining rivojlanishiga olib keldi.

Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo’lib , u bu sohada 1894-yildan boshlab ish boshlagan. 1905-yilda Fransiya ta’lim Vazirligi Binega umumiy dastur bo’yicha o’qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni ajratadigan Bine-Simon testi yaratildi .

1990-yilda Fransiya maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi.

Ko’pchilik sharqiy Yevropada Mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik –pedagogik markazlari shaklida tashkil etilgan.

1980-yilda chexoslovakiyada tarbiya masalalari bo’yicha modda maktab to’g’risidagi qonunga kiritildi.

Psixologik xizmatning asosiy mazmunini sog’lom shaxsning o’sishini ta’minlash ,shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni koreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridir.

Chexoslavakiyada psixolog maslahatchining asosiy funksiyasi psixodiagnostik faoliyatdan iboraatdir.

1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli T.D.P.U da amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi.

Psixologik xizmatning mazmuni:

- a) Psixoprofilaktika.
- b) Psixologik maorif va ma'rifat.
- c) Psixik rivojlantirish va psixokorreksiya.
- d) Psixologik konsultatsiya

Psixologik xizmat haqida Nizom 1996-yil xalq ta'lim Vaziri J.G. Yo'ldoshev tomonidan tasdiqlangan. 2001-yilda bu Nizomga o'zgartirish kiritildi. Psixologik xizmat haqida Nizom 6 bo'limdan iborat. Ular:

- 1) Umumiy qoidalar.
- 2) Psixopraflaktik ishlar.
- 3) Psixodiagnostik ishlar.
- 4) Rivojlantiruvchi va karreksion ishlar.
- 5) Psixologik maslahat berish ishlari.
- 6) Psixologik xizmat xodimlarining mas'uliyati aks etgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vazirlar mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli qarori.
2. Psixologik xizmat Z.Nishonova Toshkent 2005 (5-9-betlar).
3. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya Nishonova.Z.T Alimova.G.K